O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

№ 4 (16410)
2021-YIL
24-FEVRAL,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## G‘OLIBLAR BELLASHUVI

***Xiva shahridagi Prezident maktabida "Yosh kitobxon" respublika ko‘rik-tanlovining Xorazm viloyati bosqichi bo‘lib o‘tdi.***




Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yanada oshirish maqsadida "Yosh kitobxon" ko‘rik-tanlovi o‘tkazib kelinmoqda.

Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi doirasida O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil etgan tanlovda Xorazmning barcha tuman va shaharlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 39 nafar yosh kitobxon uchta yosh toifasi bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

Sinovlar "Buyuk mutafakkir va adib", "Badiiy asarlar bilimdoni" va "Erkin mavzu" deb nomlangan uchta shart bo‘yicha o‘tkazildi. Ota-onalar va ustozlar Prezident maktabi foyesiga o‘rnatilgan katta monitor orqali ishtirokchilar savollarga qanday javob berayotganini onlayn tarzda kuzatib bordi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, 10-14 yosh toifasida Ogahiy nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi Javohir Karimov, 15-19 yosh toifasida Xiva shahridagi 121-ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchisi Umidjon Qutlimurodov hamda 20-30 yoshdagi kitobxonlar o‘rtasida Urganch tumani 6-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Nafisa Nazarova g‘olib deb topildi va tanlovning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

— Aslida, bu tanlov g‘oliblar bellashuvi, — deydi Yoshlar ishlari agentligining besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Mansurbek Masharipov. — Chunki ishtirokchilar tanlovga tayyorgarlik davrida ma’naviy boylik va katta bilim xazinasini qo‘lga kiritadi, dunyoqarashi kengayib, haqiqiy bilimdonga aylanadi.

**Sumbuloy NURMETOVA**

## O‘ZBEKISTONDA VAKSINATSIYA JARAYONLARI

***Ayni paytgacha dunyoda 200 milliondan ziyod kishi koronavirusga qarshi vaksina bilan emlandi. O‘zbekiston Yevropa, Xitoy va Rossiyadagi hamkorlaridan vaksina xarid qilish bo‘yicha choralarni ko‘rmoqda.***




Koronavirusga qarshi kurash shtabi ma’lumotlariga qaraganda mart oyida vaksinatsiya jarayonlari boshlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davolash profilaktika muassasalari qoshida 3 ming 138 ta emlash xonasi va 820 ta mobil brigadalar tashkil etilgan, ular barcha emlash ishlarini jadval asosida bosqichma-bosqich amalga oshiradi.

Bosh vazir o‘rinbosari Behzod Musayevning ma’lum qilishicha, O‘zbekiston hukumati 8 ta yirik vaksina ishlab chiqaruvchiga 3 million dozadan vaksina xarid qilish bo‘yicha murojaat etgan. Ammo hammasi ham ijobiy javob bermagan.

Hozircha 4 million kishi bepul emlanishi, parallel ravishda pullik emlash ham yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

**Vaksina qabul qilish ixtiyoriy**

Bosh vazir o‘rinbosari Behzod Musayevning munosabat bildirishicha, birinchi navbatda va ixtiyoriylik asosida emlanadigan shaxslar ixtiyoriy emlanishdan bosh tortadigan bo‘lsa, ularga ish faoliyatida hech qanday chora ko‘rilmaydi, faqatgina emlashning afzalligi tushuntiriladi.

Davomi 2-sahifada.

## Diqqat, tanlov!

**"YOSHLAR OVOZI"-"МОЛОДЕЖЬ УЗБЕКИСТАНА" GAZETASI TAHRIRIYATI YOSHLAR O‘RTASIDA "KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA YOSHLAR" IJODIY ISHLAR TANLOVINI E’LON QILADI**

"Koronavirus pandemiyasi va yoshlar" tanlovida 14 yoshdan — 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlar o‘zlarining pandemiya davri, uning oqibatlari haqidagi, qolaversa, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi jurnalistik, badiiy va fotografik ijod namunalari bilan ishtirok etishi mumkin. Ijodiy ishlarda Covid-19 pandemiyasi oqibatlari, yurtimizda mazkur virusning tarqalishiga qarshi olib borilayotgan ishlar hamda ushbu murakkab vaziyatga yoshlarning munosabati aks etishi lozim.

Tanlovga yuborilgan ishlar joriy yilning 31-mart sanasiga qadar quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha qabul qilinadi:

— "Eng yaxshi maqola";
— "Eng yaxshi esse";
— "Eng yaxshi fotoreportaj".

Eng sara ishlar gazeta sahifalarida e’lon qilib boriladi.

Ijodiy ishlar tahririyat qoshida tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan baholanadi. G‘oliblar ro‘yxati 2021-yil aprel oyining ikkinchi o‘n kunligida gazetada e’lon qilinadi.

Tanlov nominatsiyalari bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan nomzodlar maxsus diplom hamda BHMning uch baravari miqdorida pul mukofoti, rag‘batlantiruvchi o‘rin sohiblari maxsus diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Ijodiy ishlarni "Koronavirus pandemiyasi va yoshlar" tanloviga" rukni ostida quyidagi manzilga yuboring:

1. 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy, "Yoshlar ovozi"-"Молодежь Узбекистана" gazetasi tahririyati.
2. Telegram raqami: +99890 004-41-21.

# O'ZBEKISTONDA VAKSINATSIYA JARAYONLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

### VAKSINATSIYA JARAYONINING DASTLABKI BOSQICHIDA...

O'zbekiston koronavirusga qarshi aholining 20 foizini emlash uchun vaksinalarga buyurtma bergan.



— 7 million aholini ikki marotaba emlash uchun jami 15 millionga yaqin doza vaksina keltiriladi. Dastlabki bosqichda biz 100 ming doza vaksinani olib kelib, 50 mingga yaqin aholini ushbu kasalikka qarshi emlamoqchimiz, — deydi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinbosari Nurmat Otabekov.

2021-yilda O'zbekistonda koronavirusga qarshi kurashish tadbirlari va vaksina sotib olish uchun 3 trillion so'm ajratiladi.

### XITOY VAKSINASI SINOVLARI

Innovatsion rivojlanish vazirligi Xitoy vaksinasi sinovlarida qo'shimcha 4 ming kishi qatnashishi haqida ma'lumot berdi. "Zhifei Loncom Biofarmaceutical" kompaniyasining "ZF 2001" vaksinasi uchinchi sinov bosqichida O'zbekistonda 5 ming nafar ko'ngilli qatnashayotgan edi. Endilikda ular soni 9 ming nafarga oshadi. Buning birinchi sababi, ikkinchi va uchinchi doza emlash bosqichida tadqiqot ishtirokchilari soni kamayishi mumkin. Ikkinchidan, mamlakatda koronavirus bilan bog'liq vaziyat barqarorlashgani bois, virusning vaksina olganlarga ta'sirini o'rganish qiyinlashayotgani aytilmoqda. Vaksinaning ta'siri organizmga virus tushganda aniqlanadi. Vaksina sinovlarida ishtirok etayotgan ko'ngillilarning yarmi vaksina emas, platsebo olayotgani ta'kidlangan.

### "ASTRAZENECA/OXFORD" VAKSINASI

YUNISEF taqdim etgan jadvalga ko'ra, O'zbekiston COVAX dasturi doirasida 2 million 640 ming doza "AstraZeneca/Oxford" vaksinasini oladi. Vaksinaning bir dozasi narxi taxminan 3 dollarni tashkil etadi.

COVAX dasturi bo'yicha koronavirusga qarshi vaksinalar kam va o'rtacha daromadli 92 mamlakatga iyun oyigacha taqdim etiladi.

### KIMLAR BEPUL EMLANADI?

Xitoy vaksinasining O'zbekistonda o'tkazilayotgan klinik sinovlarining dastlabki natijalariga ko'ra, emlanganlar orasida 1-darajali nojo'ya ta'sirlar 5 nafar shaxsda (0,3%) kuzatilgan. Vaksinadan favqulodda foydalanish uchun ruxsat berilsa, vaksina yaratilishida hamkor tomon sifatida O'zbekistonga vaksina imtiyozli narxlarda va yetarli quvvatlarda yetkazib beriladi.

Vaksina "ZF-UZ-2001" nomi ostida O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda tijoratlashtirilishi mumkin. Ushbu vaksina joriy yilda 300 million donagacha ishlab chiqiladi va yetkazib beriladi.

Hukumat aholining katta qismini 2021-yil oxirigicha koronavirusga qarshi to'liq emlashni rejalashtirgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, yoshi katta va aholining boshqa zaif qatlamlari vakillari bepul, ya'ni budjet mablag'lari hisobidan emlanadi.

### BIRINCHI NAVBATDA EMLANADI

Mamlakatimizda koronavirusga qarshi vaksina birinchilardan bo'lib aholining xavf ostidagi qatlamiga berilishi aytilgan edi. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mutaxassisi Vazira Mutalovaning ma'lum qilishicha, respublikada ularning soni 4 million 112 ming 668 nafarni tashkil etadi.

Ular:

— 65-74 yoshgacha bo'lgan qariyalar — 1 million 85 ming 797 nafar;

— 75 yoshdan 84 yoshgacha bo'lgan qariyalar — 388 ming 686 nafar;

— 85 va undan yuqori yoshdagi qariyalar — 139 ming 280 nafar;

— Tibbiyot xodimlari — 447 ming 976 nafar;

— Surunkali kasalliklari bor aholi (18-65 yosh) — 888 190 nafar;

— Maktab o'qituvchilari — 689 ming 383 nafar;

— Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari — 223 ming 426 nafar;

— Qurolli kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari — 180 ming nafar.

Ular o'zlari joylashgan hududlardagi tibbiyot muassasalarida tashkil etilgan emlash xonalarida emlanadi.

### VAKSINATSIYA TADBIRLARI UCHUN MAXSUS AVTOMOBILLAR

Kecha — 23-fevral kuni BMTning bolalar jamg'armasi (YUNISEF) Toshkent shahridagi "Milliy" stadionida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati uchun 17 ta muzlatkichli yuk mashinasi va 206 ta Miniven-Labo avtomobilini topshirdi.

**Ro'ziqul OCHILOV**
**tayyorladi.**

*O'qishdan to'xtagan odam fikrlashdan ham to'xtaydi. Darhaqiqat, yoshlarning bilim olish yo'lida sobitqadam bo'lishi yurtni taraqqiyot sari yetaklaydi. Davlatimiz rahbari o'tgan yili 25-dekabr kuni O'zbekiston yoshlari forumida "Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!", degan so'zlarni ta'kidlab o'tgandi.*

Mamlakatimizning jahon maydonidagi nufuzini oshirish ko'p jihatdan yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga bog'liq. Shu sababli iqtidorli yigit-qizlarni aniqlash va rag'batlantirishga, yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashini, ijodiy va shaxsiy xususiyatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur imkoniyatlar-

# ISTE'DODLI

dan oqilona foydalanayotgan ertamiz egalari o'z iste'dod va salohiyatini to'la namoyon etib, yuksak natijalarga erishmoqda.

2020/2021-o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining oxirgi ikki kursida tahsil olayotgan 219 nafar iqtidorli yosh O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalarini qo'lga kiritdi. Shunday iqtidorli yoshlar safida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining besh nafar iste'dodli talabasi ham bor.

* * *

Psixologiya (din sotsiopsixologiyasi) ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Diyora Abdug'aniyeva O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi. Toshkent viloyati Piskent tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan Diyora bolaligidan ilmga havasmand bo'lib tarbiya topdi. 2016-yilda Piskent xizmat ko'rsatish va texnologiya kasb-hunar kollejini tamomlab, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga o'qishga kirdi. Bu yerda o'zining odob-axloqi, ilmga tashnaligi bilan ustozlar va tengdoshlari hurmatini qozondi. Akademiyadagi o'qishi davomida ko'plab tanlovlarda faol ishtirok etdi. U "Maktab amaliyotchi psixologlari faoliyatida malaka oshirishning o'rni", "Shaxsning intellektual darajasini aniqlashda Amtxauer testining afzalligi", "Psixolog faoliyatidagi etikaviy prinsiplar", "O'zbek oilasida egizak farzandlar tarbiyasidagi ijtimoiy-psixologik muammolar" kabi 20 ga yaqin maqolalar muallifi.

**Diyora ABDUG'ANIYEVA,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sovrindori:**



– Prezidentimizning har bir farmon, qarorida yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday e'tibor natijasi o'laroq, 2019-yilda Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasini, joriy o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasini qo'lga kiritdim. Bu yutuqlar zamirida ota-onam va ustozlarimning zahmatli mehnati yotibdi, albatta.

Ayni paytda "Koping strategiyalarni amalga oshirishda din omilining namoyon bo'lish xususiyatlari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib boryapman. Tadqiqotdan maqsadim diniy e'tiqod darajasi shaxsda muammolarni yengib o'tish sifatiga qay darajada ta'sir etishini o'rganishdan iborat. Shu orqali yurtimizda din psixologiyasi rivojlanishiga o'z hissamni qo'shish niyatidaman. Bu mukofot kelajakda ilmiy faoliyatimni davom ettirishga katta ishonch va turtki beradi.

# MANBASHUNOSLIK va hadisshunoslik darg'asi

***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida taniqli sharqshunos olim, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi Ubaydulla Uvatov tavallud topgan sana munosabati bilan yosh tadqiqotchilar respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi.***

Unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi Abdug'afur Ahmedov, raisning birinchi o'rinbosari Muzaffar Komilov, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov, Xalqaro islom akademiyasi rahbariyati, davlat va jamoat arboblari, ilm-fan hamda madaniyat va san'at namoyandalari, professor-o'qituvchilar, olimlar, marhum ustozning yaqinlari, shogirdlari va talabalar ishtirok etdi.

– O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida ilmning ulkan ustunlaridan biri, tengsiz sharqshunos olim bo'lgan Ubaydulla Uvatov Misr olimlari orasida ma'lumu mashhur edi, – deydi misrlik olim Ahmad Sa'd Damanhuriy. – U kishi yozib qoldirgan ko'plab asarlar o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, olimning hadis ilmiga doir asarlarida sunnat va hadis imomlari haqida batafsil ma'lumot keltiriladi. Bundan tashqari, Amir Temur haqida Ibn Arabshohning asarini tarjima qilgani, ulkan jur'at bilan O'zbekistonga olib kelgani ham tahsinga sazovor.

Anjumanda talabalar o'rtasida ustozning ilmiy merosi bo'yicha viktorina o'tkazildi. Shuningdek, ustoz xotirasini yanada abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan sport musobaqalarining g'oliblari taqdirlandi. Tadbir doirasida Ubaydulla Uvatov mualliflигidagi kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi.

**Muxbirimiz**



# YOSHLAR – YURT TAYANCHI

* * *

Akademiyaning “Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” fakulteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Kamola Bekniyozova Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi bo‘ldi.

Kamola Bekniyozova 2019-yil Amerika Qo‘shma Shtatlarining “SUSI Women’s Leadership” (“Ayollar yetakchiligi”) grantini qo‘lga kiritib, O‘zbekiston Respublikasi qizlari nomidan mazkur mamlakatdagi besh haftalik xalqaro konferensiya va intensiv kurslarda qatnashdi. AQShning Jorj Vashington universitetida “Xalqaro qizlar” konferensiyasi, Puget Sound universitetida “Madaniyatlar festivali”da faol ishtirok etdi. Shu yili Germaniyada chop etiladigan “Monografia pokonferencyjna: Science, Research, Development” ilmiy jurnalda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” (“Small-sized business and private entrepreneurship”) maqolasi chop etildi.

**Kamola BEKNIYOZOVA,**
**Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi:**



– Har qaysi millat va xalqning ma’naviy kamolotini aks ettiradigan mezon — jamiyatning xotin-qizlarga e’tibori, hurmati bilan belgilanadi. Buyuk davlat arbobi Indira Gandining “Bitta qiz bolani o‘qitsangiz, butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, degan so‘zlarida jon borligini davrning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Quvonarlisi, mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyat va yaratilayongan sharoitlar natijasida ular jamiyatimizning ko‘plab jabhalarida yetakchi mavqelarni egallab kelmoqda. Bugungi kunda Akademiyada bilim olish bilan birga jamiyatda yosh qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Girls’ Talk” munozara klubining tashkilotchisi sifatida faoliyat yurityapman.

* * *

Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi bo‘lganim ertangi faoliyatim uchun katta ishonch bag‘ishladi. Kelajakda o‘z salohiyatimni yuksaltirish, Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilish maqsadida hamisha o‘qish, izlanishda bo‘lish kerakligini his qilib turibman.

“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” fakulteti “Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Sabina Xudoyqulova Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi.

Iste’dodli talaba bolaligidan tarix, xalqaro munosabatlar, informatsion texnologiyalar va ingliz tili kabi sohalarga qiziqadi. 2020-yili “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovi g‘olibi. U 2017-yilning dekabr oyidan 2018-yilning aprel-may oylariga qadar Navoiy shahridagi viloyat ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasasida maktab o‘quvchilariga tarix, adabiyot va ingliz tili fanlaridan bepul to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tgan.

Sabina Xudoyqulova bugungi kunda hanuzgacha o‘rganilmagan Navoiy viloyati Nurota tumani Suvliq va Modovod qishloqlari hududlarida joylashgan qadimiy qoyatosh suratlari tadqiqoti bilan shug‘ullanmoqda. Bundan tashqari, “Qurolli mojarolar hududlaridagi bolalar himoyasi va ayollar huquqlari” nomli ilmiy loyiha ustida izlanishlar olib boryapti.

**Sabina XUDOYQULOVA,**
**Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori:**



— Imom al-Buxoriy stipendiyasi ilm-fan sohasida o‘zining innovatsion g‘oyalarini amalga tatbiq etayotgan yoshlarga rag‘bat bermoqda. Rostini aytsam, bu stipendiyaga loyiq topilishimni rahmatli onam judayam istar, meni doimo ruhlantirib turardi. Bugun shu stipendiyani qo‘lga kiritdim. Bu yutuqda hayotimdagi birinchi ustozim — onajonim, ilmiy faoliyatimdagi muvaffaqiyatlarimdan o‘zimdan-da ko‘proq quvonib, doim qo‘llab-quvvatlagan ustozlarimning hissasi katta.

Tengdoshlarimga doimo harakat qilish, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish kerakligini ta’kidlagan bo‘lardim. Ota-onalardan esa farzandlarini ilm yo‘lida doim ruhlantirishni, ularga ishonishlarini so‘rab qolaman.

* * *

“Islomshunoslik” fakultetining “Turizm (ziyorat turizmi)” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Bahodir Esonboyev ham Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasini qo‘lga kiritdi. Talaba o‘tgan yili Toshkent shahri va atrofiga ziyorat qilish, dam olish uchun kelgan turistlarga mo‘ljallab “Smart Tour Map” dasturini yaratdi.

Shuningdek, uning “Jahon iqtisodiyoti globalizatsiyasi sharoitida turizm industriyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari”, “Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari” kabi mavzulardagi ilmiy maqolalari to‘plamlarda chop etilgan.

**Bahodir ESONBOYEV,**
**Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori:**



– Bolaligimdan oilamizda o‘qishga e’tibor kuchli edi. Ota-onam oliy ma’lumotli bo‘lmasa-da, biz farzandlarni o‘qitish uchun harakat qilishardi. Ularning “Biz yetarli darajada bilim ololmadik, ammo sizlar o‘qishingiz kerak!”, degan so‘zlari qulog‘im ostida jaranglab turadi. Menga ishonib, o‘qishim uchun sharoit yaratib berishdi. Davlat stipendiyasini qo‘lga kiritgan paytim ustozlarim ota-onamga qo‘ng‘iroq qilib, bu xabarni aytishganida, ularning men bilan g‘ururlanishganini his qildim. Asta-sekin o‘z oldimga qo‘ygan marralarni zabt etyapman. Bu menga o‘z ustimda yanada ko‘proq ishlashga xohishni kuchaytirdi.

Tahsil davomida respublika va xalqaro miqyosidagi konferensiyalarda “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirish”, “O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari”, “Yoshlar bandligini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni: muammo va yechimlar” mavzularidagi ilmiy maqolalarim bilan ishtirok etdim.

Ayni paytda yo‘nalishim bo‘yicha hamkorlikda turagentlik firmasini tashkil etdim. Bu orqali yurtimiz sayyohlik salohiyatini yanada rivojlantirish, soham bo‘yicha yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shishni maqsad qilganman.

* * *

Bu yil Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo‘lgan “Islomshunoslik” fakulteti “Dinshunoslik” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Nigina Botirova ham o‘qish va jamoat ishlarida faol ishtirok etmoqda. U 2019-yilda Hindistonda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada sertifikat bilan taqdirlangan. Respublika davriy nashrlarida ijtimoiy maqolalari, she’rlari e’lon qilingan. “Agar kirsam o‘qishga”, “Oq otdagi shahzodam” nomli she’riy to‘plamlari chop etilgan.

**Nigina BOTIROVA,**
**Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori:**



– Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar mazmun jihatidan bevosita yoshlarga daxldor ekanini anglaymiz. Albatta, bugungi shiddatli zamonda yoshlar istak-xohishi, qiziqishi, qanday kasb bilan bandligi haqida xabardor bo‘lish har birimizning zimmamizdagi mas’uliyatli vazifa sanaladi. Yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar yutuqlarimiz uchun qanot bo‘lmoqda. Husayn Voiz Koshifiy “Ustoz nimaiki aytsa, shogird uni jon dili bilan eshitishi, chin ko‘ngil bilan qabul qilishi, olgan bilim va malakasini amalda ado etishi kerak”, deb aytadi. Biz, yoshlar ustozlarimizning o‘gitlariga amal qilsak, yutuqlarimiz ko‘payaveradi.

Davlatimiz yoshlarga yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, strategik resurs sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e’tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

**O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi**
**Matbuot xizmati**

# Diqqat, yangi rukn!

Mamlakatimizda uchinchi renessans davrining poydevorini qurishga kirishildi. Bu kichkina hodisa emas! Ushbu jarayonning markazida, albatta, yoshlar — intiluvchan, ilm-fanga qiziquvchan va intellektual rivojlangan avlod turadi.

Ayni paytda bunday yoshlar yangi, ilg'or g'oyalarini ro'yobga chiqarish, muvaffaqiyatli startap loyihalar yaratish, innovatsiya va ixtirolar qilishga, lo'nda qilib aytganda, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga munosib hissa qo'shmoqda. Yangi — "Ilm-fan yutuqlari — amaliyotga" rukni ostida ana shunday izlanuvchan tengdoshlarning, yosh olimlarning ilmiy-ijodiy ishlari, ixtiro va yutuqlari berib boriladi. O'ylaymizki, bu ko'p sonli yoshlarning ilm-fanga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

ILM-FAN YUTUQLARI — AMALIYOTGA

# LOGOS mobil ilovasi

## insult asoratlarini davolashda asqotadi

***Ma'lumotlarga ko'ra, har yili respublikamizda 60 ming nafardan ziyod odam insult bilan xastalanar ekan. Insult — bosh miyada qon aylanishining buzilishi bo'lib, uning o'tkir va tiklanish davrlarida harakat, nutq buzilishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi. Chap o'rta miya arteriyalari zararlangan bemorlarning 80 foizida nutq buzilishi — afaziya kuzatiladi. Insultdan keyingi afaziyali bemorlar nutqini tiklash g'oyatda murakkab jarayon.***




Afaziya, bu — to'liq yoki qisman yo'qolgan nutq buzilishi bo'lib, nutq funksiyasi uchun javobgar bo'lgan bosh miya bo'limlarining zararlanishi natijasida yuzaga keladi. Afaziya — nutq buzilishlari reabilitatsiyasi qancha erta boshlansa, shuncha tez va yaxshiroq tiklanadi.

Afaziyali bemorlar nutqini qayta tiklash muammosi hali to'liq yechimini topmagan bo'lib, bunday bemorlarni davolashda shifokor va logopedlar turli usullardan foydalanib kelishadi. Biroq bir bemor nutqini tiklash uchun ishlatilgan samarali usul boshqa bemor nutqini tiklash uchun samara bermasligi mumkin. Shu sababli har bir bemorning davo topishi uchun ularga individual yondashish zarur. Ammo bunday yordamga muhtoj bemorlar ko'p, mutaxassislar esa sanoqli.

Bu muammoga yechim topish haqida juda ko'p o'ylardim. Menda bemorlar nutqi reabilitatsiyasini nafaqat statsionar sharoitda, balki uy sharoitida ham davom ettirish uchun mobil ilova yaratish g'oyasi paydo bo'ldi. Shundan so'ng LOGOS — birinchi milliy multimediyali mobil ilova yaratishga qaror qildik va nutq tiklanish dinamikasi boshdan kechirilgan insult turi hamda og'irlik darajasiga bog'liqligini o'rganib chiqdik.

**LOGOS — bosh miya qon aylanishining o'tkir buzilishi, ya'ni insultdan keyingi afaziyali insonlar nutqini tiklashga yordam beruvchi o'zbek tilidagi birinchi multimediyali mobil ilovadir.** Ushbu mobil ilovaning prototipi yaratilib, nevrologik amaliyotga tavsiya qilindi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ustuvor ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar, tajriba-konstruktorlik hamda "Start Up" loyihalari tanlovi e'lon qilinganini eshitib, unda o'z loyiham bilan ishtirok etdim. Tanlovda qatnashgan loyihalar orasida tibbiyotdagi ishlanmalar ham dolzarbligi nuqtayi nazaridan o'rganib chiqildi. Yosh olimlarning xalqimizga foyda keltiradigan, aholi sog'lig'ini muhofaza qilishda samarali natija beradigan yangi g'oyalari alohida e'tirof etildi.

Bizning loyihamiz 2019-yili 657 ta "Start-Up" innovatsion loyiha ichida eng yaxshilaridan biri sifatida tanlanib, sertifikat bilan taqdirlandi. O'tgan yili "Eng yaxshi 20 ta Start Up" loyiha orasida g'olib bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish uchun 75 million so'm pul mukofoti berildi.

Biz taqdim etgan mobil ilova dasturlari o'zbek tilida ekani, rasmlar ham mentalitetimizga mosligi bilan ajralib turadi. U bemorning tibbiy ma'lumoti bo'lmagan yaqinlari va mutaxassislar uchun uslubiy yordam vazifasini ham o'taydi. Yana bir qulayligi shundaki, shug'ullanish uchun alohida joy, vaqt talab qilmaydi. Bu mobil ilovadan xohlagancha foydalanish imkonini beradi.

LOGOS mobil ilovasi insultni boshdan o'tkazgan afaziyali bemorlarga nutqini tiklashda ko'maklashuvchi uslubiy qo'llanma bo'lib, insult asoratlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

**Munisa RASULOVA,**
**Toshkent Tibbiyot akademiyasi asab kasalliklari kafedrasi assistenti**



NUQTAYI NAZAR

# YUKSAK MA'NAVIYAT OILADA SHAKLLANADI

***Zamon shiddat bilan o'zgarmoqda. Hozirgi yangi axborot texnologiyalarini yoshlar tez o'zlashtirmoqda. Yoshlarimiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda o'zini qiziqtirgan har qanday axborotni topa olish ko'nikmalariga ham ega bo'ldi. So'nggi yillarda so'z erkinligi, axborot olish kafolatlari yanada mustahkamlandi.***

Biroq ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog'i orqali tarqalayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborot, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi "jozibador" tasvirlar va mediamahsulotlarning zararini faqat ma'naviy-ma'rifiy yoki g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Bunday buzg'unchi g'oyalar bilan sug'orilgan mahsulotlar yo'liga faqatgina undan-da kuchli tasvir va mediamahsulotlar, aniqroq aytadigan bo'lsak, mamlakatimizdagi mediamakonning aynan o'zbekona qadriyatlarimizga yo'g'rilgan foto, audio va video mahsulotlari bilan to'siq qo'yishimiz mumkin.

Bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish muhim o'rin tutadi. Davlat va jamoat tashkilotlari axborot tayyorlovchi va uni keng ommaga yetkazuvchi har qanday manba bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozimligini zamonning o'zi taqozo etmoqda. Undan tashqari, uzluksiz ta'limda "Milliy g'oya" turkumidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimini yanada takomillashtirish ham ayni muddao.

Ta'lim tizimida diniy ma'rifat yo'nalishidagi mavzular ham nazarda tutilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Nega deganda, milliy qadriyatimizning kelib chiqish tarixi ko'p jihatdan muqaddas dinimizga borib taqaladi. Salomlashishdan tortib ro'zg'or tutish, farzand tarbiyasi, ota-onani hurmat qilish, salomatlikni saqlash, ilm olish, kiyinish madaniyati, kasb-korli bo'lish, mehmon kutish, savdo-sotiq odobigacha bo'lgan qadriyatlarimiz e'tiqodimizdan kelib chiqqan holda shakllangan va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda.

Bizning eng og'riqli nuqtamiz esa, yoshlarni ayni yuqoridagi kabi qadriyatlar yo'sinida tarbiyalayotgan oilalarning soni kamayib ketganidir. Ochig'ini aytganda, yoshlarimiz oila quriboq ro'zg'orini alohida qilish harakatida bo'lmoqda. Bu bir tomondan yaxshi. Lekin ikkinchi tomondan olib qaraganda, ularning farzandlari katta yoshdagi avlod vakillarining tarbiya va o'gitidan bebahra o'smoqda.

Butun dunyoga tashvish keltirgan koronavirus pandemiyasi qaysidir ma'noda ko'zimizni ochdi. O'sha og'ir kunlarda mehr-oqibat, insonparvarlik va hamjihatlik kabi qadriyatlarimiz yangi kuch, yangi quvvat bilan namoyon bo'ldi. Biz endi shu qadriyatlarimizni asrabgina qolmay, uni yanada rivojlantirish choralarini ko'rishimiz kerak.

O'tgan yili murakkab vaziyatga qaramay, tarix sinovidan sharaf bilan o'tgan, o'z xalqining mehri va hurmatini qozongan o'ta kamtar, mehnatkash, vatanparvar arbob Usmon Yusupovning xotira majmuasini tumanimizda barpo etdik. Hozir hududimizdagi barcha maktablar bu majmuaga sayohat uyushtirmoqda. O'quvchilar Usmon Yusupovning shaxsini qiziqish bilan o'rganmoqda.

Bundan tashqari, boyovutliklarning ko'nglida farovon hayotga intilishni uyg'otish, ularni obod turmush qurishdek maqsad sari yetaklash, bu yo'lda bir yoqadan bosh chiqarish va faollikka chaqirish maqsadida "Boyovut tumanini obod markazga aylantiramiz" nomli majmua tashkil qildik.

Bunda kutilgan maqsadga erishildi ham. Aholining o'zi istiqomat qilayotgan xonadonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga, yoshlarning ko'cha-ko'yda tozalikni saqlashga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ayniqsa, "Baxtli oila — nurli kelajak" maydoni oilaviy qadriyatlarga hurmatni yanada oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Har doim ma'naviyatimiz, ma'rifatimizning yuksakligini ta'minlash oiladagi muhitga bog'liq bo'lib qolaveradi. Oila baxtli bo'lsa, demak, kelajagimiz nurafshondir.

**Dilfuza O'ROLOVA,**
**Boyovut tumani hokimi,**
**Oliy Majlis Senati a'zosi**

ГОСПРОГРАММА ГЛАЗАМИ МОЛОДЕЖИ

# ДЕЙСТВУЮЩАЯ СИЛА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Сегодня в нашей стране формируется новое поколение, способное достойно продолжить начатую нами огромную работу по построению в родном Узбекистане свободной, благополучной жизни.**

*Шавкат МИРЗИЁЕВ,*
*Президент Республики Узбекистан*

В стране проводится масштабная работа по модернизации системы высшего образования, развитию науки и внедрению инновационных технологий.

С учетом потребностей реального сектора экономики и социальной сферы за последние пять лет в Узбекистане созданы новые вузы. Эффективную деятельность осуществляют также филиалы ведущих университетов Великобритании, Индии, Италии, России, Сингапура, США, Южной Кореи.



Вспышка коронавирусной инфекции затронула судьбы миллиардов людей по всей планете, не стал исключением и Узбекистан. Однако пандемия явилась своеобразным катализатором развития передовых технологий в сфере образования. За короткое время удалось наладить систему дистанционного обучения, создать платформы для электронных учебных материалов, по телевидению внедрена трансляция видеоуроков для школьников и многое другое.

Студенты, преподаватели вузов с воодушевлением восприняли Указ «О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах в «Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения». Ведь в данном документе особо выделено высшее образование как важное направление в интеллектуальном развитии страны.

Озвучено внедрение гранта Президента Республики Узбекистан для 200 молодых людей, набравших максимальные баллы на вступительных экзаменах в вузы.

Увеличение количества государственных грантов для высшего образования на 25 процентов и для девушек из нуждающихся семей в два раза, а также государственный грант для частных вузов на подготовку специалистов дают возможность получить профессию по призванию тем, кому не по средствам обучение на контрактной основе.

«В ногу со всей страной!» – именно так можно охарактеризовать деятельность нашего вуза, в котором уделяется огромное внимание обмену опытом, вовлечению в исследовательскую деятельность, повышению правовой грамотности населения.

Новый порядок предоставления академического отпуска позволит закончить учебу студентам, вынужденным ухаживать за больными родственниками или поправляющими собственное здоровье, а также молодым мамам.

Увеличится число направляемых на учебу в магистратуру и докторантуру передовых зарубежных вузов по линии фонда «Эл-юрт умиди». Научным советам престижных высших образовательных учреждений поэтапно будут передаваться полномочия по присвоению научных степеней и научных званий, что ускорит пополнение рядов преподавателей, занимающихся исследовательской деятельностью.

Будучи представителем молодого поколения ученых, данные новшества воспринимаю как стимул для дальнейшего развития юридической науки на благо страны в целом и моего вуза в частности.

Ташкентский государственный юридический университет, являясь флагманом отечественного юридического образования и науки, активно участвует в процессе подготовки самостоятельно мыслящих профессиональных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами.

«В ногу со всей страной!» – именно так можно охарактеризовать деятельность нашего вуза, в котором уделяется огромное внимание обмену опытом, вовлечению в исследовательскую деятельность, повышению правовой грамотности населения.

Сформирован Экспертный совет из 30 соотечественников, проживающих за рубежом (Великобритания, Канада, США, Франция, Япония) и работающих в сфере права. Члены совета принимают непосредственное участие в учебном процессе. Цель – объединение усилий в совершенствовании юридического образования.

Для студентов-отличников, активно участвующих в общественной жизни, учреждена стипендия Министерства юстиции в размере 1,5 базовой стипендии. Выплачивается в течение года.

Преподаватели ТГЮУ пройдут стажировку в Институте судебных исследований Калифорнийского университета Беркли и в Нагойском университете в Японии.

Уверен, что 2021 год станет поистине успешным для талантливой молодежи, ведь правовые основы уже заложены.

**Фарход ФАЗИЛОВ,**
**старший преподаватель ТГЮУ,**
**доктор философии**
**по юридическим наукам (PhD)**



# Есть талант? Запишем в тетрадь!

## В Джизакской области стартовал интересный эксперимент по поддержке одаренных юношей и девушек

СТРОИТЕЛИ БУДУЩЕГО

По предложению областного хокимията внедряется тетрадь «Золотой фонд», в которую включаются молодые жители региона, добившиеся успехов в различных сферах. Инициатива реализуется в рамках Государственной программы «Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения».

В связи с этим в конференц-зале хокимията состоялась встреча. На мероприятие приглашены юноши и девушки, их родители, руководители профильных организаций, образовательных учреждений. Им предоставлена подробная информация о цели, сути и значении новой программы.

Ее участниками станут 200 молодых людей – учащиеся школ, учреждений системы профессионального образования, а также студенты областных вузов. У ребят должны быть креативные идеи в сфере науки, культуры, литературы, искусства, спорта. Особенно станет поощряться деятельность по укреплению здоровья населения. «Строителям будущего» предоставят привилегии и льготы, направленные на раскрытие талантов.

– Это незабываемое событие в жизни молодых людей, их семей, в том числе и нашей, – отметил Улугбек Рабимов из Арнасайского района. – Рад, что дочь Ситора за образцовую учебу, а также победы на предметных олимпиадах внесена в тетрадь «Золотой фонд». Наши дети, безусловно, оправдают такое внимание и высокое доверие.

На встрече участникам программы вручены членские удостоверения, а также статуэтки с логотипом фонда.

Инициатива, стартовавшая в Джизакской области, – логическое продолжение осуществляемых в республике мероприятий по работе с различными категориями населения. В прошлом году эта деятельность приобрела новые формы. Так, создана «молодежная тетрадь» для безработных юношей и девушек, «женская» – для незанятых представительниц прекрасной половины человечества. В первую включаются узбекистанцы от 18 до 30 лет, во вторую – женщины старше 30. Им оказывается социальная, правовая и психологическая поддержка, содействие в приобретении новых знаний и профессий, трудоустройстве. Такой формат социальной работы призван сделать помощь более адресной и целенаправленной, выявить тех, кому она особенно необходима.

В Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения это особенно актуально.

**Подготовила Ольга ЛИДИНА**



YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
№ 4 (16410) 2021-YIL 24-FEVRAL


# КУЛЬТ PRO СВЕТ

## Спасенные сокровища

***В Самаркандском государственном музее истории культуры народов Узбекистана открылась высокотехнологичная лаборатория по реставрации и консервации экспонатов.***



Оснащена оборудованием и реактивами общей стоимостью 96 тысяч долларов. Специальные микроскопы позволяют до ста раз увеличивать исследуемые объекты, фиксировать имеющиеся дефекты и повреждения. Специалисты могут осуществлять бережную очистку археологических находок, с помощью современных реагентов восстанавливать утерянные орнаменты редких керамических изделий.

Проект реализован в рамках меморандума, подписанного Фондом департамента культурного наследия Республики Корея, Министерством культуры, Академией наук Узбекистана и Самаркандским государственным музеем-заповедником.

## На хинди и бенгальском

***В Узбекистане появится новый спутниковый телеканал «Имам Бухари», который займется развитием зиёрат-туризма.***



Об этом говорится в Указе «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан». Президент поручил ряду профильных ведомств в трехмесячный срок в целях широкой популяризации и продвижения бесценного наследия великих ученых и деятелей; особенно Имама Бухари, разработать и внести в Кабмин концепцию по созданию и развитию нового телеканала.

Вещание планируется вести на индонезийском, бенгальском, малайском, турецком, арабском, языках хинди, урду, пушту и других. Корреспонденты будут работать за рубежом.

## Подобный куполу

***В Бухаре построят музей, стилизованный под древний исторический памятник.***



Трех- или четырехэтажное здание будет воздвигнуто в виде купола по образцу старинных восточных монументов. Общая площадь составит примерно девять тысяч квадратных метров.

В музее планируется разместить шесть экспозиций, состоящих из 125 тысяч предметов, которые отражают историю, природу и изобразительное искусство Бухары. Также здесь появятся конференц-зал, комнаты резервного фонда, фитобар и офисы.

## Кинопутешествие в прошлое

***На телеканале «Миллий» состоялась премьера исторического сериала «Мендирман Джалолиддин» («Я – Джалолиддин»).***



Кинопроект посвящен хорезмшаху Джалолиддину Мангуберди, отважно сражавшемуся с Чингисханом. Цель – через художественные образы познакомить зрителей с героями и событиями прошлого, заинтересовать изучением нашей богатой истории.

Съемками занималась кинокомпания Bozdag film. Привлечены опытные актеры из Узбекистана и Турции, которым пришлось пройти спецподготовку для участия в батальных сценах, освоить верховую езду и фехтование. На съемочной площадке воссоздали дворец XIII века, более 200 портных трудились над костюмами.

Историко-художественный фильм состоит из 13 серий.

ДИАЛОГ С ИСТОРИЕЙ



# КАЖДЫЙ ДЕНЬ – ЭКЗАМЕН



***Один известный актер и режиссер говорил, что «музеи надо научиться понимать, как классическую музыку». Действительно, можно долго ходить по храмам истории и искусства, вглядываться в экспонаты, а память удержит самую малость. Другое дело – экскурсия с профессионалом: все разложит по полочкам, логически свяжет, расскажет увлекательную легенду, закрепит с помощью интерактивной беседы...***

***Всемирный день экскурсовода отмечают 21 февраля. Учрежден он Всемирной федерацией ассоциаций экскурсоводов (гидов) с целью повышения информированности широкой общественности о важности и значении работы этих специалистов и празднуется с 1990 года.***



*Как-то услышала высказывание музеефила: «Красивая профессия, несложная, спокойная: выучил текст – и гоняй целый день как шарманку». И невдомек дилетантам, что настоящее мастерство – это не зазубренный материал, а проникновение в него, не монотонный пересказ, а выстраивание контакта со слушателями, не раз и навсегда данная информация, а постоянный поиск.*

*Дабы уберечь читателей от ложного поверхностного представления, мы встретились с* ***Сайёрой Усмановой, завсектором выставок Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана****.*

**– Обратила внимание, что коллектив у вас по большей части молодежный. Откуда приходит пополнение?**

– Молодежь – около 70 процентов всех сотрудников. Случайных людей нет. Обычно в музеи устраиваются по большой любви. И музей (а он живое существо) чувствует отношение к себе и отвечает взаимностью. Кстати, получится нужный тандем или нет, показывает студенческая практика, которая длится месяц. Вообще, музееведение – захватывающая наука. Здесь раскрывается столько тайн! Не может не увлечь работа с экспонатами, фондами, посетителями. Сплетаются история, культура, психология, ораторское искусство.

Основной потенциал – выпускники Государственного института искусств и культуры Узбекистана и Национального института художеств и дизайна имени К.Бехзода. Те, кто изначально выбрал музейное дело и целенаправленно ему обучался. Устраиваются филологи: без иностранных языков не обойтись.

**– Практикой проверяется, не принял ли студент первое впечатление за призвание. Однако программных посещений музеев и вхождения в профессию в продолжение относительно короткого времени недостаточно для формирования специалистов. Их приходится «дошлифовывать»?**

– Конечно, такая работа ведется. Система взаимодействия «устоз – шогирд» помогает новичку овладеть необходимыми навыками. В течение нескольких месяцев идет обучение. Даже когда трудишься десятилетия, непрерывно пополняешь багаж знаний. Меняется жизнь – и ты находишься в постоянном поиске. Останавливаться нельзя.

**– Первая экскурсия проходит с «подстраховкой»? Устоз, готовый помочь, находится рядом?**

– В первый раз всегда сложно, хотя подготовка проводится основательная. Молодые специалисты сдают экскурсионную работу. (Нередко в этом случае ответственный за новичка сотрудник выступает в роли посетителя, задающего уйму вопросов.) Затем постепенно отправляем их в свободный полет. Начальный этап – юные посетители, где менее сложный, но не примитивный текст, упрощенные пояснения. Затем студенты. Может в зале находиться и наставник. Дебют непредсказуем. Не исключено, что из-за волнения вдруг подведет память и молодой экскурсовод растеряется. Устоз выручит незаметно для посетителей, как бы ненароком вступив в разговор.

Что касается волнения, оно свойственно всем. И зеленым, и умудренным опытом. Просто у одних спрятано глубоко внутри, а у других еще на поверхности. Мы каждый день словно экзамен сдаем: каким будет контингент посетителей, каким восприятие публики, какие вопросы зададут, удастся ли наладить контакт?

**– Определенные заготовки имеются, только подача информации варьируется?..**

– Экскурсии разработаны для разных категорий, для разного уровня подготовленности, но в каждую вносятся коррективы в зависимости от ситуации. Двух одинаковых не бывает. Скажем, школьники нуждаются в подробном, детальном объяснении. Говорим, к примеру, о кустарном производстве шелка и даем информацию, сколько весит кокон, какой длины нить из него получается. Параллельно показываем, как рождается натуральная ткань. Знакомим с ткацким станком, станком для ковроделия, комментируем затраты времени. Детям это очень интересно. Кстати, взрослым в век развития техники тоже. Если среди группы есть люди преклонного возраста, спрашиваем у них, не приходилось ли когда осваивать ремесло. К бабушкам и дедушкам ребята прислушиваются с особым вниманием. Историческая нить связывает их не только с экспонатом, но и со знакомыми, а то и близкими.

Для юных посетителей устраиваем мастер-классы. Традиционно посвящаются Международному дню защиты детей, каким-то значимым датам. Никто не отказывается попробовать себя в гончарном деле. С удовольствием лепят из пластилина. На недавней Неделе культуры нашими гостями стали воспитанники школ-интернатов с ограниченными возможностями. Для слабослышащих организовали сурдоперевод. У нас есть сотрудники, владеющие дактильной речью (особая фишка музея), организующие соответствующие экскурсии. В интенсивном интерактивном проекте учащиеся показали:



среди них немало одаренных, обладающих богатым воображением. Рисовали, лепили. Были приглашены известные актеры, эстрадные исполнители. Общение получилось радостным и плодотворным. Родилась идея создать передвижную выставку работ школьников и показать в городах Узбекистана. Она – лучшее доказательство утверждения: «Каждый ребенок талантлив».

**– Интерес – лучшая почва для запоминающейся экскурсии. Наверняка в вашем арсенале есть какие-то истории, концентрирующие внимание посетителей.**

– Рассказывала группе иностранцев о национальной вышивке. Подчеркнула: раньше парень не мог видеть девушку до свадьбы. Судить о ней приходилось по сюзане. Разглядывая узоры, молодой человек представлял внешность будущей супруги, черты ее характера. Нравилось сюзане – он принимал решение жениться.

Мужчина застыл у стены, изучая орнамент, а потом воскликнул с чувством: «Какая прекрасная тонкая работа! Я не в силах оторваться. Уже влюбился в мастерицу».

Наверное, в нашем музее каждый находит свой экспонат. То, что особенно по душе. Девчонка лет девяти-десяти затаив дыхание слушала историю дойры и ногоры. Очаровала дойра. Хотя это преимущественно мужской инструмент, юной ценительнице музыки захотелось научиться играть. Еле сдерживалась, чтобы не потрогать притягательный предмет. Приводила в музей родителей, что-то им горячо доказывала. Целеустремленная, записалась в кружок. Потом снова пришла в музей. В тот день приглашенные музыканты разрешили девочке не только подержать инструмент, но и объяснили, как отбивается ритм.

То, что сделано руками, сделано с любовью, несмотря на долгую жизнь, несет на себе положительную энергетику мастера или мастерицы. От экспоната исходит тепло, он заряжает позитивом. Связывает прошлое с настоящим.

**– А как вы выбрали свою профессию? Красивую, познавательную, дарящую людям радость.**

– Окончила Национальный университет Узбекистана. Направление – английская филология. Посещение Музея прикладного искусства в 2006 году, можно сказать, перевернуло все мое существо. Поняла, что жить по-другому уже не получится, что должна видеть это чудо каждый день и знакомить с ним людей. И еще немаловажный факт: общение с иностранцами рисовало постоянное совершенствование английского.

Любила историю всегда, но одной ее мало. Были и предметы, касающиеся искусства, однако и этого недостаточно. Необходимы профессиональные ориентиры. Окончила специальные курсы «Маънавият ва маърифат» для сотрудников музеев, добывала знания самостоятельно. Чтобы рассказывать гостям столицы о творениях рук человеческих на английском языке, нужно в совершенстве владеть информацией





на родном. Быть готовой к неожиданным вопросам иностранных туристов. Для них ты лицо музея, лицо страны. Некоторые подруги по-хорошему завидуют: «Сайёра опять в сказку спешит, с красотой встречаться». А эта красота в прочном фундаменте нуждается: кто, когда, почему, каким образом?





**– Вы проводите экскурсии на английском, есть сурдоэкскурсии, а еще?**

– На французском и испанском. Естественно, на государственном и русском.

**– Состояние изумления не покинуло вас за годы работы в музее?**

– Не покинуло. Красота, призванная служить людям, не приедается, взгляд не замыливается. Прикладное искусство, то есть создаваемое не для любования, а для пользования, употребления, рождает тысячи вопросов. Так что каждый день проходит в обстановке новизны. Посмотришь на экспонат с другого ракурса – он незнакомым кажется, более привлекательным и красочным. Опять же толчок для дополнительного изучения.

**– Новшеством стал и проект «Ночь в музее»?**

– Тем более что нас по праву можно назвать локомотивом проекта в Узбекистане. Накануне Нового года приняли около 300 посетителей. Ходили по залам с фонариками, а это создает иное видение и восприятие. Игра тени и света дает эффект загадочности, волшебства. Особенно красива в таком освещении резьба по ганчу. Изюминка – ожившие экспонаты. Вот поток света высветил паранджу под стеклом. Отголосок прошлого. И вдруг появляется фигура в старинном одеянии...

Еще одна «Ночь в музее» планируется 27 марта. О программе ничего не скажу: сюрприз.

**– Старинные вещи требуют особого ухода. Предполагается, что они будут знакомить с древними народными промыслами не одно поколение узбекистанцев.**

– Этим занимаются реставраторы, прошедшие профессиональную школу. Приведу простой пример. Безусловно, резные двери красивы. Ажурные узоры привлекают взгляд. И пыль собирают не меньше. Уборка в музее сильно отличается от домашней. Пылесос в помощники не годится. Представьте, сколько надо возиться с одной дверью, чтобы очистить каждую линию, завитушку от пыли и покрыть специальным защитным раствором.

**– Музейные экспозиции собираются ради посетителей – представителей всех поколений. Есть ли среди них такие, которые восхищают постоянством?**

– Наше местоположение – живописная улица Ракатбоши. Радует, что жители махалли приходят семьями. Дедушка водил сюда внучек детсадовского возраста, а сейчас они уже школьницы. Росли на глазах. И не только физически. Более зрелым становилось восприятие. От распахнутых в изумлении глаз до глубоких вопросов о народных ремеслах.

Повторные визиты иностранных гостей поражают внимательным отношением к культуре Узбекистана. Они с удовольствием называют наши бренды: риштанскую керамику, бухарское златошвейное искусство, чустские ножи. Радуются по-детски, когда их хвалят за память.

**– Ваш «фаворит» среди удивительных творений рук человеческих – это...**

– Украшение XIX века тиллакош («золотые брови»), хранившее женщин от сглаза. Ношение такого аксессуара, кроме чисто эстетической функции, было знаком, что его хозяйка либо замужем, либо просватана.

**– Сейчас нет организации, которая бы не пыталась успевать за современными технологиями. Активно создаются сайты, странички в соцсетях...**

– Наш сайт в настоящее время в процессе обновления. В социальных сетях выставляются анонсы, демонстрируются экспонаты в 3D-формате. Представьте керамическое изделие, которое поворачивается к зрителю. На обычной экскурсии предмет так не рассмотришь.

**– Не отвлекает ли виртуальное знакомство от реальных встреч с музеем? Ведь молодежь – приверженец всего нового. Если есть возможность переместиться в мир прекрасного одним кликом, зачем куда-то ехать? Это философия многих современных юношей и девушек.**

– Интернет не дает полной картины, при всех плюсах быстрого поиска и экономии времени не передает главного – духа прикладного искусства и ремесленничества, чудесной доброй ауры, которая многих приводит к истинному призванию. Именно увлекающая энергетика «зовет» к красоте и убеждает попробовать творить ее своими руками. Немало костюмеров, ремесленников, гончаров обязаны своей профессией музею – удивившему и подтолкнувшему к выбору.

Молодежь к нам приходит. Встреча с национальным искусством предков как глоток свежего воздуха после пандемии, перекрывшей кислород. Чтобы сделать общение с прекрасным более привлекательным, введены скидки на билеты для школьников, студентов, пенсионеров, людей с инвалидностью. Законодательно утверждено бесплатное посещение музеев юношами и девушками до 18 лет по вторникам и пятницам. В Международный день музеев (18 мая) традиционно проводится день открытых дверей. В сентябре Неделя музеев.

В постановлении Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества» отмечается воспитательная функция музеев и других учреждений культуры. Первое воскресенье месяца определено бесплатным днем для всех категорий населения.

**– О чем мечтаете, находясь среди уникальных предметов быта?**

– Хотела бы участвовать в раскопках и найти какой-нибудь древний артефакт. А еще посетить самые известные музеи мира и в первую очередь ознакомиться с экспонатами, представляющими Узбекистан. Обязательно посмотреть на монолит, ознаменовавший победу Амира Темура над Тохтамышем. Он находится в Эрмитаже. Привлекают Лувр и Восточный музей в Москве.

**– Наверняка хотите поздравить коллег с Всемирным днем экскурсовода.**

– И пожелать крепкого здоровья, позитива, много любознательных посетителей, с которыми приятно работать. Пусть любимое дело приносит удовлетворение и радость!

**Беседовала Людмила ПОЛОНСКАЯ**

# Слово за слово

## Следы февраля

Если у вас температура от 37, 1 до 37, 9 градуса, ее называют **субфебрильной**. Переносится она иногда тяжелее, нежели более высокая.

Слово «февраль» пришло в русский язык из греческого, а в греческий – из латыни. Переводится februarius как «лихорадочный». Переменчивость погоды третьего зимнего месяца, «лихорадка» которого складывается из чередования холодных и теплых дней, стала определяющей при выборе названия.

В результате звуковых изменений слово приобрело современный облик: мы говорим не «фебруарь», а «февраль».



## ТВОРЧЕСТВО НАШИХ ЧИТАТЕЛЕЙ



# Сердце дома

Старый тандыр в старом, заброшенном доме. Когда-то он был сердцем, алтарем, центром маленькой вселенной. Когда-то хозяева позвали мастера и тот сложил из простого сырцового кирпича Дом Огня в жилище людей.

Огонь обитает в недрах Земли, поэтому тандыр похож на пещеру. Огонь рождается в сердце вселенной, поэтому тандыр похож на срезанное сверху яйцо, то самое космическое яйцо, из которого вылупились миры. Огонь живет и светит среди мрака, поэтому тандыр похож на врата в царство Ночи. Каждое утро из этих врат выходит Солнце, и каждое утро хозяйки вынимают из тандыра огненно-горячие свежие лепешки…

Лепешек, судя по закопченным стенкам, в нем испекли много. Больше не будет. Тандыр снесут вместе с домом. Но у него была славная жизнь. Стоит запомнить.

**Кашмира ИСКАНДАРИ**

# УЗНАЙ



*В 30–40 километрах к северо-востоку от города Навои расположено урочище реки Сармыш, где находятся уникальные археологические памятники каменного века, эпохи бронзы, раннежелезного века и средневековья.*

*На сегодняшний день здесь найдено более десяти тысяч петроглифов, разбросанных на территории в 20 квадратных километров.*

*Мавзолей Рухабад – одно из самых древних и аскетичных зданий старого Самарканда. Здесь нет ярких и пестрых мозаик, глазури, извилистых линий: все лаконично и величественно. По форме монументальное строение, возведенное в XIV веке, напоминает куб. Войти в него можно с разных сторон: с севера, запада, юга.*







*Ташкентский зоопарк открыт в 1997 году в честь празднования независимости страны.*

*Вскоре зоосад ждут масштабные изменения. Он наконец-то станет настоящим домом для зверей и зеленым уголком для уставших от каменных джунглей ташкентцев. Тиры уберут, точки общепита приведут в порядок, аттракционы перенесут в дальний конец. Территорию разделят на сектора по материкам обитания животных («Африка», «Америка» и другие) и оформят в соответствующем ландшафтном стиле. Проект планируется завершить к 100-летию зоопарка (2024 год).*



*В Каракалпакстане будут разводить креветок и пекинских уток. Для создания сельскохозяйственного научно-производственного парка выделена территория в Кегейлийском районе. Здесь построят животноводческую ферму, фабрику по производству комбикормов, завод по выпуску минеральных удобрений.*





*В Фергане находится единственное в СНГ предприятие по изготовлению каменной бумаги. По сравнению с целлюлозной она имеет ряд преимуществ: при производстве не наносится вред экологии, продукт не размокает в воде, надписи долго не стираются, себестоимость в несколько раз ниже. В качестве сырья используются простой камень и кальций.*

BIR BAYT SHARHI

# Besh kunlik dunyoning mohiyati



***Alisher Navoiy she'riyatida tushunilishi oson bayt va g'azallar talaygina. Bunday g'azallarni sharhlashda odatda she'rning badiiy-estetik jihatiga ko'proq e'tibor beriladi. Jumladan, quyidagi baytda "besh kun" va "besh emas" iboralarida tajnis san'ati qo'llangan.***

**Uy bino aylab ajabtur elni**
**mehmon aylamak,**
**Ulki bu uy ichra besh kun**
**mehmone besh emas.**

Bunda shoir "besh" so'zining ham turkiy, ham forsiy ma'nosini qo'llab, (besh so'zi turkiyda sanoq son, forsiyda "ko'p", "ortiq", "ziyod", "yaxshiroq" ma'nolarini anglatadi) kishini ma'no-mohiyat sari yetaklaydi, qalbimizni junbishga keltiradi. Tasvir va bayonning zohiriy go'zalligi uchun, ya'ni ma'no yukidan ozod so'zlarni shunchaki ohangdorligiga qarab joylashtirish — Navoiydek tasavvuri daqiq shoir uchun mutlaqo yot hodisa. Shuning uchun mumtoz she'riyatimizda qo'llangan har bir so'z yoki timsolning tarixiy tadriji haqida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va muayyan she'rga tatbiq eta bilish – tadqiqotchining birlamchi vazifalaridan hisoblanadi.

E.Bertelsdan boshlab, barcha navoiyshunoslar: "Alisher Navoiyni anglash uchun, eng avvalo, u o'qib-istifoda qilgan kitoblarni o'rganish kerak", — degan fikrni ta'kidlaydi. Afsuski, Navoiy she'rlari tahliliga bag'ishlangan maqolalardagi iqtibos va dalillar, asosan, XV asrdan keyingi manbalardan olinadi.

Navoiy she'riyatini tahlil qilishda uning ma'naviy ustozlari – Hofiz Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy ijodi, shuningdek, Mavlono Jomiy huzurida "ta'lim yo'suni va muqobala usulida" ta'lim olgan, ayrimlarining nomlari "Xamsat ul-mutahayirin"da qayd qilingan adabiy-irfoniy asarlar birlamchi manba vazifasini o'tashi lozim. O'shanda baytlar zamirida "yetti qavat parda"ga o'ralgan ma'no go'zalliklarini anglab, qalb orom topadi, ruhan qoniqamiz.

"Besh kun" iborasi Sharq she'riyatida qadimdan keng qo'llangan. Fors-tojik she'riyatining yirik vakili, Navoiyning bilvosita ustozi Xoja Hofiz Sheroziy:

**Suxan dar parda mego'yam,**
**chu gul az g'uncha berun oy,**
**Ki besh az panj ro'ze nest**
**hukmi miri navro'ziy, —**

(Tarjimasi: Ramz tilida so'zlayman, guldek g'uncha pardasini och, chunki Navro'z amirining hukmi besh kundan ortiq emas), — desa, Navoiyni o'ziga ustoz bilgan turkman shoiri Maxtumquling:

**Uzanging tortarlar,**
**to'rt kun kechgan so'ng,**
**Besh kundan ortiqcha**
**mehmon to'xtamas, —**

degan satrlari bor. Hofiz baytidagi "Navro'z amiri" iborasi "besh kun"ning tarixini Navro'z ayyomiga bog'liq urf-odat va an'analardan axtarishga undaydi. Abu Rayhon Beruniyning "At-tafhim" asarida keltirilishicha, qadimda ajdodlarimiz bir yilni o'n ikkita o'ttiz kunlik oyga (jami uch yuz oltmish kun) taqsimlab, qoldiq sifatidagi besh kunni Navro'z ayyomida bayram qilishgan. Ya'ni bu besh kun yil hisobiga kiritilmagan.

Gardiziyning "Zayn ul-axbor"ida berilgan ma'lumotga ko'ra, ushbu besh kun shohona kiyingan saroy masxarabozlaridan biri shoh tomonidan qo'shib berilgan shotirlar bilan shaharni aylanib, Navro'z ayyomi amiri sifatida ajabtovur hukmlar chiqarar, do'konlardan shirinlik va boshqa noz-ne'matlarni bepul olib, bolalar va miskinlarga tarqatar ekan. Navro'z amiri besh kun o'tgandan so'ng biror muddatga yashirinib yurishga majbur bo'larkan, chunki odat bo'yicha agar qo'lga tushib qolsa, qattiq kaltaklanar ekan.

Hofiz moziydagi ushbu odat tarixiga ishora qilib, odam bolasining bu dunyodagi hayotini yil sanog'iga kiritilmagan besh kunning "hukmdor"i – Navro'z amirining holatiga qiyoslaydi va umrimiz, aslida, o'tkinchi — muvaqqat ekanligini ta'kidlaydi.

"Besh kun" ta'biri irfoniy manbalarda boshqacha talqin qilinadi. Alisher Navoiy o'qib-istifoda qilgan manbalardan biri – Xoja Abdulloh Ansoriyning "Ilohiynoma" asarida eng muhim besh kun Junayd Bag'dodiy talqinida berilgan.

Birinchi kun "yavm ul-mafqud" – o'tgan kun, yo'qotilgan vaqt. O'tmishni xotirlab, bekor o'tgan zamonga afsus chekish va oldingi muvaffaqiyatlardan mag'rurlanib yurishdan foyda yo'q, chunki moziydagi shavkat qaytarilmas, o'tmish xatolari tuzatilmasdir.

Ikkinchisi "yavm ul-mashhud" – bugungi kun bo'lib, har bir kishi bu lahzalardan to'g'ri foydalana bilishi, o'zi uchun oxirat ozig'ini tayyorlab, nafs atalmish dushman bilan ayovsiz kurashib, axloqini tuzata borishi lozim. Aks holda, umr besamar ketishi hech gap emas.

Kelajak, ya'ni ertangi kun "yavm ul-mavrud" deya atalib, bu kun nasib etish-etmasligi hali noma'lum. Xoja Abdulloh Ansoriy ushbu kun talqini haqida, jumladan, shunday deydi: "Ey, aziz, ertangi kunga ishonch yo'qdir, undan bonasib bo'lish-bo'lmasliging yolg'iz Xudoning O'ziga ayondir. Senga noayon bo'lgan narsaga umid bog'lashing noravo, negaki nasiyaga savdo qilib, sud(foyda)ni ko'zlamoq savdoyilarning ishidir. Ertangi kunning o'z vazifalari va o'z tashvishlari bor, har bir nafas hisobli bo'lgan bu dunyoda bugungi tashvishni ertaga qoldirish noto'g'ri ish". Xalq orasidagi: "Payg'ambar ham bugunini ko'ribdi", — maqoli shundan dalolat beradi.

To'rtinchi kun "yavm ul-mav'ud" – va'da qilingan kun, ya'ni bu dunyoni tark etish kunidir (Maxtumquling: "Uzanging tortarlar to'rt kun kechgan so'ng" misrasini eslang). Bu jamiki tirik jonga va'da qilingan kundir. O'lim muammosi – din, fan, falsafa va adabiyotning umumiy va abadiy jumboqlaridan. Sitseron o'limni dahshat deb bilsa, Suqrot uni ahamiyatsiz deb talqin qiladi. Kato ajalni totli va go'zal deb madh qilsa, Zardusht insonning eng xavfli dushmani deb biladi. Sharq faylasuflaridan Zakariyo Roziy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino "O'limni eslash" nomida alohida risolalar ta'lif etgan.

Ammo ular, yunon olimlaridan farqli o'laroq, bu tushuncha islom ta'limotida jismga oid ekani, ruh esa abadiyligini asos sifatida olib, ajalni qismatdagi voqelik sifatida qabul qilish lozim, moddiyat olamida abadiy hayotga erishish yo'lidagi barcha intilish va sa'y-harakatni samarsiz, deya baholashgan. Ibn Sinodan keyin bu masala muhokamasi falsafadan tasavvuf va irfon maydoniga ko'chdi.

So'fiylar talqinicha, inson moddiy olamga qanchalik bog'langan, nafs uning ustidan o'z hukmini o'tkazgan bo'lsa, shunchalik ajaldan qo'rqadi va uni eslamaslikka harakat qiladi. Ruhiy hurriyatga erishganlar esa ajalni visol onidek qarshilaydi. Ijodiy hayoti she'r bilan boshlanib, she'r bilan tugagan Mavlono Jaloliddin Rumiyning so'nggi g'azalini eslang:

**O'limim kuni qachonki tobutim**
**ravon bo'lgay,**
**Gumon qilmagilki, ko'nglimda**
**dardi jahon bo'lgay.**
**Mening uchun yig'lama va demagil**
**"Darig', darig'!.."**
**Devlar domiga tushgaysan darig'**
**hamon bo'lgay.**
**Janozamni ko'rsang, demagil**
**"Firoq, firoq",**
**Menga visol va muloqot**
**o'shal zamon bo'lgay.**

"Odam bolasining mol-dunyo, abadiy rohat-farog'at, zulm va zo'ravonlik, urush va qirg'inbarotga o'chligi o'limdan qo'rqishi tufayli yuzaga keladigan ruhiy illatdir", — deb yozadi arab allomasi Ibn Xaldun. Bir soniya oldin ham, keyin ham kelmaydigan bu qazoyi mubram oldida nochor, moddiyat va ruhoniyat arosatida qolgan insonni yuqoridagi talqinlarning birortasi to'la qanoatlantirmaydi. Shu sababdan, Ansoriy: "O'limdan ikki kun qochmaslik kerak – ajal yetgan kun hamda ajal yetmagan kun", — deya ushbu haqiqatga oydinlik kiritgani ham muammoning yechimiga so'nggi nuqta emas...

Tiriklikning eng muhim kunlaridan beshinchisi "yavm ul-mamdud" – hisob kuni, qiyomat kuni deya talqin qilinadi. Ushbu kun sinov tariqasida berilgan umrdan to'g'ri foydalana bilgan oqillar ham, o'zini yer kurrasining mutlaq hukmdori bilgan, o'limni xayoliga keltirmagan g'ofillar ham azal va abad mezboni – Parvardigori olam huzurida qilmishlariga yarasha mukofot olajaklar. Bu kun odamlar tasalli uchun to'qigan nisbiy haqiqatlar chilparchin bo'lib, abadiy haqiqat gumon va shubha pardalarini yirtib, barchaning ko'ziga namoyon bo'ladi. Ushbu haqiqatga tik qaray bilish qanchalar oliy saodat, qaray olmaslik esa naqadar og'ir musibat...

Ayrim ilmiy tadqiqotlarda, tarkidunyochilik – pessimistik kayfiyatning mahsuli, degan yanglish fikr berilgan. Aslida, tasavvuf targ'ib qiladigan tarkidunyochilik hayotsevarlikning aynan o'zidir. Kundalik tashvishlarga ko'milib umrguzaronlik qilish, badanni issiq-sovuq va behayo ko'zlardan saqlash uchun yaratilgan libosning kunora ming rangda turlanishi, ko'zni qamashtiruvchi taqinchoqlar, baland ko'shklar, muvaqqat mansab va soxta mashhurlik ketidan quvish, umrdan ham bevafo chiroydan bahramandlik uchun jonhalak bo'lish – bu hali hayotsevarlik emas. Dunyoning yaralishi, odam avlodlarining paydo bo'lishi, uning o'tkinchi umr maydonidagi amallari, yashashdan maqsad, yaxshilig-u yomonlik, hayot jumboqlari kabi azaliy va abadiy muammolar ustida tafakkur qilish, insoniylik mohiyatini anglash tiriklik atalmish bebaho ne'matning qadriga yetmoq uchun mustahkam zamin yaratadi.

G'azzoliy aytganidek: "Kishi o'zi anglagan narsanigina yaxshi ko'ra oladi, bilmagan narsa uni doimo qo'rquv va tahlikaga soladi". Navoiy besh kunlik dunyo haqiqatini teran anglagan, ushbu haqiqat asosida hayot kechirgan va shu sabab ikki dunyo saodatiga erishgan ulug' zot edi.

Hamma vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa ehromlardan, deydi qadimgi misrliklar. Menimcha, Hazrat Navoiy she'riyati xususida ham shunday deyish mumkin. Olam va odam mavjud va qalbimizda haqiqatga, mehr-muhabbatga tashnalik bor ekan, insoniyat ma'naviy komillik sari intilar ekan, Navoiy yashayveradi.

**Olimjon DAVLATOV,**
**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**

# JIZZAX VILOYATI MAKTABGACHA TA'LIM BOSHQARMASI JAMOASI





*Aziz va muhtaram opa-singillarimiz, mehribon onajonlarimiz va buvijonlarimizni yaqinlashib kelayotgan 8-mart – Xalqaro xotin-qilar kuni bayrami bilan samimiy muborakbod etadi!*

*Yurtimiz tinch, hayotimiz farovon bo'lsin. Xotin-qizlarimiz chehrasida kulgi-tabassum hamisha bahor quyoshidek charaqlab tursin!*

# HUT MANZARALARI

*"Yaxshi kelsa hutni ko'r,*
*qozon to'la sutni ko'r".*
*O'zbek xalq maqoli*

ESSE

***...Onamning sir-sinoatga boy hikoyalari bir talay, ayniqsa, uzun qish kechalari Oyshirin, Oqil, Momogul momolar charh ko'tarib gurungga chiqishsa, ularning suhbatini eshitib mo'jizalar olamiga tushib qolganday bo'lardik. To'g'ri, o'yinga o'ch biz — qora-qura bolalarning osongina oyog'imiz tinmas, tun allamahalgacha oqsuyak, yashirinmachoq, podshoh-vazir o'ynasak-da, oxir-oqibat uyga yig'ilib, kattalar gurungiga quloq tutardik.***

— "Ayamajuz" nima, — so'raymiz o'zimiz uchun yangi atama sirini bilishga qiziqib.

— "Ayamajuz" to'qsonni yakunlab beradigan olti kunning nomi.

— "To'qson" degani-chi? — savol berishda davom etamiz.

— Qish to'qson kundan iborat, bolajonlar, u dekabr oyining beshinchi kunidan boshlanadi. Uning katta va kichik chillalari bor. Shabiyaldo kuni katta chilla kiradi.

Endi uylab ko'rsam, qichkintoy bolalarni "bijildoq" deb atashlari to'g'ri ekan. Hamma narsani miridan-sirigacha bilib olish uchun savol ustiga savol yog'diramiz:

— "Shabiyaldo"si nima?

— "Chilla" nima degani?

— Nega "hut" deyishadi?...

— Qishning eng qisqa kun va eng uzun kechasini shunday atashadi...

Xullas qiziqishlarimiz beiz ketmadi, qish fasli boshlanganidan o'n besh kuncha o'tib, shabiyaldo deb ataladigan yilning eng qisqa kun va eng uzun kechasi kiradigan katta chilla qirq kun — fevral oyi boshigacha davom etishi, keyin o'rnini yigirma kunga cho'ziladigan kichik chillaga bo'shatib berishini bilib oldik.

Azal-azaldan donishlarimiz ayamajuz bilan yakun topadigan to'qsonga ehtiyot yuzasidan o'n kun qo'shib, "sad pok" deb ham yuritganlar.

* * *

Qiziq, vaqt o'tib bolalik taassurotlari o'z isbotini toparkan, uzun qish kechalari momolarning urchiq yigirishdan to'xtamay bergan gurunglaridan negadir Ayamajuzni tishini qayrab turgan yolmog'iz kampir qiyofasida tasavvur etardik. Bunga onalarimiz tekturmaslik qilganimizda beradigan dakkilari ham qo'shilib, tasavvurimiz ishonchga aylanardi: "Hoy, tek o'tir, bo'lmasa Ajuz momoga berib yuboraman!"...

Oradan yillar o'tib ayamajuz haqida turli manbalardan o'qiganlarim, sinchilardan eshitganlarim ilk taassurotlarda ma'lum darajada haqiqat borligini ko'rsatdi.

Ajuz arab tilidagi so'z bo'lib, kampir degan ma'noni anglatarkan. Kabisa yilida fevralning (shubotning) so'nggi to'rt kuni va mart (ozor) oyi boshidagi uch kunni, kabisali bo'lmagan yillarda aksincha bo'ladigan ayamajuz ba'zan sakkiz, to'qqiz kunga ham cho'zilib, u "shisha" hamda "kampir kunlari" deb atalarkan. Rivoyatlardan birida bu atamaga keksa bir kampir havoning isiganini ko'rib, paxtalik kiyimi o'rniga yengil ust-bosh kiygani oqibatida shu kunlarning sovug'ida o'lgani dalil keltirilsa, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida uni qishning "kampiri", ya'ni oxiri deb ta'riflaydi. Ayamajuz va hut haqida bir talay hikmatli so'zlar aytib kelinadi:

"Ayamajuz olti kun, olti oy qishdan qattiq kun", "Ajum momo olti kun, sakanglasa – sakkiz kun, to'qanglasa – to'kkiz kun", "Ahman-dahman olti kun, qahriga olsa qattiq kun", "Yaxshi kelsa hut – qut, Yomon kelsa hut – yut", "Yaxshi kelsa hut – kadi to'la sut, Yomon kelsa hut – keraga to'la put" va boshqalar.

Hutning yomon kelishi o'n-o'n ikki yilda bir takrorlanib, asosan "quyon yili"ga to'g'ri kelgan. Shunday yillar hut oyida qorlar eriy boshlagan palla birdan qattiq sovuq boshlanib, yerning yuzi muzlagan. Endigina og'zi ko'kka tekkan chorva mollari muzlagan yerdan bir nima topib yeyolmaganidan qirilib ketgan. Shu bois xalq orasida "Hutman, yomon kelsam – oriq molga yutman" degan maqol ham yuradi. Ko'pni ko'rgan keksalarimiz:

— "Yut"ning yuzini tesqari qilsin, — deb duo qilishadi.

* * *

Fevralning so'nggi kuni havoning avzoyi o'zgardi. Erta tongdan izg'irinli shamol esib, ko'k tokini lak-lak qora bulut egalladi.

Ko'pdan bir tomchi yomg'irga matal edik, sevinchimni sinchi birodarim Odil Qurbonov bilan baham ko'rishga shoshildim:

— Bulutni qara, hademay sharros quyib beradimi deyman.

Suhbatdoshim barmoqlarini bukib-yozib, nimalarnidir hisob-kitob qildi:

— Aslida hut kunlari qalin qor tushsa ham ajablanmaslik kerak, beshinchi mart to'qson chiqadi. Keyin ahman-dahman, navro'z qaroqchi, ayyom Ajuz, har birining o'z nag'malari bor. Ammo bugun bir neklik kutib o'tirmang, baribir yomg'ir uch-to'rt kundan so'ng yog'adi. Meni aytdi deyavering, halizamon harosat ko'tarilib, bugina bulutingizni titib tashlaydi.

Qiyg'os gulga o'tirgan bodomga achinaman, bechora bahor kelganiga ishonib, libosini o'zgartirgandi.

"Bahor keldi deb choponingni tashlama, qishda nima qilishingni o'zing bilasan", deganlari balki shudir.

Ayniqsa, hutning so'nggi yetti yarim kunidagi "ayyomi Ajuz" ko'p o'yin ko'rsatadi. Naql etishlaricha, Ajuz momo qishga qarab: "Hoy to'qson, g'azab qilsam bir kunimcha yo'qsan", deyar emish.

Eshitganim bor, tojik xalqida: "Hut agar hutti kunad, kampirro dar qutti kunad", degan maqol mashhur. Tarjimasi: "Hut agar hutligini qilsa, kampirlarni uydan chiqarmay qo'yadi", degan ma'noni berarkan. Shu kunlarda devorning kungay betiga po'stak yozib, ustida charh yigirgancha gurungni avj oldiradigan xotin-halaj ham uyga kirib ketadi.

Fevralning oxiri, martning boshida ob-havoning teztez turlanib turishi boisi ham shunda. Bir qarasang badanni jo'njiktiruvchi ayoz, bir qarasang oftobro'yada murg'ilaydigan iliq havo.

**Abdunabi ABDIYEV,**
**yozuvchi**

YANGILIK

# BUXORONING TASHRIF QOG'OZI

***Buxoroda uch tilda ziyoratlar xaritasi yaratildi. Bu turistlarga qo'shimcha qulaylik yaratadi.***

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Tarix ilmiy bo'limi mudiri O'ktamali Ravshanov xaritani O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti "Etnologiya va antropologiya" markazi tayanch doktoranti Shavkat Bobojonov Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi bilan hamkorlikda qariyb 6 oy mobaynida yaratgani xususida so'zladi. Shaharning 500 gektarlik qadimiy shahriston va zamonaviy qismidagi barcha ziyoratgohlar xaritaga qamrab olingan. E'tiborli jihati, muallif faqat hozir mavjud ziyoratgohlarni emas, balki yo'qolib ketgan, saqlanib qolmagan qadamjolarni ham turli tarixiy manbalar orqali aniqlab, xaritaga kirgizgan.




— Buxoro shahri qadimda 200 dan ortiq guzardan tashkil topgan. Afsuski, 1920-yilda Chor Rossiyasining Buxoroga hujumi, sovetlar davridagi ateizm, dahriylik siyosati va boshqa ma'muriy, ijtimoiy sabablar tufayli ko'plab ziyoratgohlar yo'qotilgan, xalqimiz ma'naviyatidan o'chirilgan. Xaritadan 133 ta ziyoratgoh va 40 ta qadimiy qabriston haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Xaritaning old tomonida shaharning topografik joylashuvi aks etgan bo'lib, unda obyektlar 173 ta nuqtaga bo'lingan holda tartib bilan joylashtirilgan. Ziyoratgohlar o'rni arab raqami, qabristonlar o'rni rim raqamida belgilab chiqilgan. Mavjud obyektlar ko'k, saqlanmaganlari esa qizil rangda ifodalangan. Xaritada shahar devori, qabriston, ziyoratgohlar shartli belgilarda o'z aksini topgan. Shuningdek, qadimiy shahristonni o'rab turuvchi 12 km. lik devorning 11 darvozasi joyi va nomlari keltirilganki, bu orqali ziyoratchi shaharning qaysi nuqtasiga borishi kerakligi haqida yanada aniqroq yo'nalishni bilishi mumkin. Xaritaning orqa tomonida to'rt ustunli jadvalda qabriston va ziyoratgohlarning joylashuv tartib raqami, nomi, asri hamda manzili batafsil bayon etilgan, — deydi O'ktamali Ravshanov.

"Buxoro shahri ziyoratgohlari xaritasi" nomli ilmiy ishlanma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ro'yxatga olingan hamda guvohnoma taqdim etilgan. Ko'hna sharif shaharning jamiki ziyoratgoh va qadamjolari jam bo'lgan mazkur xarita Buxoroning islom olamidagi jahoniy shuhratini yanada oshirishga hissa qo'shadi. Xarita Buxoro ziyorat turizmining tashrif qog'oziga aylanadi.

**Laylo HAYITOVA**

***"Mikrokreditbank" tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar va kelajakdagi rejalariga bag'ishlangan anjuman o'tkazdi.***

## YOSHLARGA 1,4 TRILLION SO'MLIK IMTIYOZLI KREDIT AJRATILADI

— Bank tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2020-yilda jami 5,5 trillion so'mlik kreditlar ajratildi, — deydi "Mikrokreditbank"ning chakana biznesni rivojlantirish departamenti direktori Qobil Karimov. — Ushbu kreditlar hisobiga 64 mingdan ortiq ish o'rni yaratildi. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida esa 503 milliard so'mlik kredit ajratilib, 4,5 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari ochildi.

Shuningdek, "Yoshlar-kelajagimiz" dasturi doirasida 2020-yilda jami 75,3 milliard so'm resurs jalb qilinib, yil davomida 387 ta yoshga 93 milliard so'm kredit ajratildi va 990 ta yangi ish o'rinlari tashkil qilindi. Hisobot davrida bank tomonidan ijtimoiy dasturlar doirasida aholiga 1,4 trillion so'mlik imtiyozli kredit ajratilgan bo'lsa, shundan 736 millard so'mi (53 foiz) 20 mingga yaqin yoshlarga yo'naltirildi.

2021-yilda yoshlarga o'z biznesini tashkil etishi uchun 1,4 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratish belgilangan.

**Hasan ABDUNAZAROV**



Barcha yurtdoshlarimiz, jumladan, dilbar ayollarimizni yasharish va yangilanish fasli – bahor ayyomi hamda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etamiz! Sizlarga mustahkam sog'liq, bahoriy xushkayfiyat doim yor bo'lsin!



TOSHKENT VILOYATI NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISH VA PROTEZLASH MARKAZI JAMOASI




XALQ TABOBATI



# Ismaloq – kamqonlikda koni foyda

***Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida ismaloqning foydali xususiyatlari haqida shunday yozadi: "Bunda yuvuvchi, tozalovchi quvvat bor. Safroni qattiq haydaydi. Ko'pincha me'da uning qaynatmasini tusamaydi". Shuningdek, uning ichni yumshatish, ko'krak va o'pkalarga surgandagi foydasi haqida alohida to'xtalib o'tgan.***

Ismaloqning kamqonlikni davolash va immunitetni yaxshilash xususiyati bor. Qolaversa, tomirlarni mustahkamlaydi, oshqozonosti bezi faoliyatiga yordam beradi. Hujayralarning qarishini sekinlashtiradi.

Ich yaxshi yurishmagan va qorin dam bo'lganda, 10 gramm ismaloq bargini 200 gramm suvda qaynatib ichilsa, ichaklar ishi ancha ravonlashib, qorin damligi kamayadi.

Milklar yallig'langanda og'izni, bodomsimon bez og'riganda tomoqni ismaloqning yangi olingan suvi bilan chayqash yaxshi foyda beradi.

Ismaloq bargining qaynatmasi asab tizimi faoliyati buzilganda tinchlantiruvchi vosita sifatida ichib turiladi. Qaynatma tayyorlash uchun bir oshqoshiq to'g'ralgan ismaloq 200 gramm suvda o'n daqiqa qaynatiladi va bir soat tindirib qo'yiladi. Suzib olib, kuniga uch mahal yarim piyoladan ichib turish tavsiya etiladi.

Ismaloqning qari barglarida shovul kislotasi ko'p bo'lgani uchun yangi barra barglarini ishlatgan ma'qul. Shu bois, uni bolalarga ko'p berish tavsiya qilinmaydi. Shuningdek, kislota buyrak, jigar, o'n ikki barmoq ichak va o't qopi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur a'zolarida xastaligi bor bemorlar ham uni iste'mol qilishda ehtiyot bo'lishi zarur.

Ismaloqni ko'p saqlab bo'lmaydi, aks holda tarkibida organizm uchun zararli tuzlar ko'payib ketadi.

# Yoshlar murojaati

## BOTI OCHILDI

**Hurmatli yoshlar!**

"Yoshlar ovozi"-"Молодежь Узбекистана" gazetasi Sizlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish hamda ularga yechim topishda yaqindan yordam berish maqsadida @yoshlar_ovoziga_murojaat_bot telegram manzilini ishga tushirdi.

Siz ta'lim olish, bandlik, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, uy-joy xarid qilish, oila qurish hamda boshqa holatlarda muammo va noqonuniy to'siqlarga duch kelsangiz, bu haqda bizga murojaat eting. Tahririyat o'z vakolatlari doirasida bu muammolarni keng yoritish, tegishli tashkilot va idoralarga ochiq xat yo'llash yoki masalalar yechimi yuzasidan huquqiy maslahatlar berishda Sizga yaqindan ko'maklashadi.

**UNUTMANG!** *Odatda yoshlar o'zining ulkan rejalarini boshlash arafasida ko'pincha mayda to'siq va muammolarga duch keladi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, kurashuvchanlik bilan ushbu muammolarni yengib o'ta olganlar yangi-yangi ufqlarni zabt etaveradi.*

**Tahririyat**


YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB – Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR: Jamshid MUSURMONOV

DIZAYNER Zafar RO'ZIYEV

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefon: (71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.

**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-255
Adadi – 785
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi** – 20.02

1 2 3 4 5 6